



TURKIY TILLAR FAKULTETI
O'ZGA TILLI GURUHLARDA O'ZBEK TILI TA'LIM YO'NALISHI
2 - "G" GURUH TALABASI
AMINBAYEVA MAHFUZA

Fan: Til ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari

Ssenariy muallifi: prof – Shaxlo Yuldosheva

 **LIVEWORKSHEETS**


Mavzu: Qavm–qardoshlik bilan bog'liq so'zlar

Reja:

- 1. O'quvchilarga qavm - qarindoshlik bilan bog'liq so'zlar haqida ma'lumot berish**
- 2. O'quvchilarga qavm - qarindoshlik bilan bog'liq xalq maqollari haqida ma'lumot berish**
- 3. Olingan ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirish**

Yetti avlodni bilish biz uchun qarz ham farz.


- 1. Farzand.***
- 2. Nevara.***
- 3. Chevara.***
- 4. Evara.***
- 5. Pannevara***
- 6. Ovara.***
- 7. Begona.***





***Biz yetti avlodimizni bilsak, tariximizni bilganimizdir.
Ko'pincha yetti avlod atamasi bilan baravar yetti ota,
shajara atamalari qo'llanadi. Shajara so'zi arabcha
"daraxt" so'zidan olingan bo'lib, insonlarning kelib chiqishi,
qavm-qarindoshlik aloqalari majmuyini bildiradi. Shajaralar
tuzish bilan geniologiya fani shug'ullanar ekan.***



Geniologiya (yun. *genealogia* – shajara) – yordamchi tarix fanlaridan biri (XVII-XVIII-asrlarda vujudga kelgan). Bilimlarning amaliy sohasi, shajaralar tuzish. Urug' va oilalarning kelib chiqishi, ayrim shaxslar tarixi va qarindoshlik aloqalarini o'rganadi.



Xalqimizda qarindoshlik bilan bog'liq maqollar ko'p: Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona. Qudachilik – mingyilchilik. Basharam – shajaram. Boldiz boldan shirin va h.k. (Mahmud Koshg'ariy bobomiz boldiz so'zning bal – kichik qarindosh so'zidan yasalganligini yozib qoldirgan ekan)




LIVEWORKSHEETS



Qarindoshlik ham turlarga bo'linadi. Oila kodeksining 57 va 58 – moddalarida qarindoshlik, yot aralashmagan va yot aralashgan qarindoshlik belgilab qo'yilgan. Xalq orasida esa yaqin qarindosh, uzoq qarindosh degan atamalar bor.

Shajara ham turlarga bo'linar ekan, to'g'ri shajara va yon shajara. Bolalar, ota-onalar, nevaralar, bobolar, buvilar, evaralar, katta bobolar, katta buvilar va hokazo to'g'ri shajaradagi qarindosh hisoblanadi. Bolalar ota-onasiga nisbatan to'g'ri shajaradagi – birinchi, nevara bobosiga, buvisiga nisbatan – ikkinchi, evara katta bobosiga, katta buvisiga nisbatan uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi.



АБУЛҒОЗИЙ
ШАЖАРАЙИ
ТУРК



Aka – uka, opa-singil, ularning bolalari, otananing aka-uka va opa-singillari hamda ularning bolalari, bobo va buvilarning aka-uka hamda opa-singillari va ularning bolalari va shunga o'xshashlar yon shajara bo'yicha qarindoshlar hisoblanadi. To'g'ri shajara bo'yicha qarindoshlar yon shajara bo'yicha qarindoshlarga nisbatan yaqinroq hisoblanadi.

